

**NODIRA AFOQOVANING NAVOIY G'AZALLARIGA TATABBU'LARI**

**Xolida BAZAROVA**

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti akademik litseyi,  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*

**DOI** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14806410>

**Annotatsiya:** *An'anaviylik, izdoshlik, vorisiylik hodisalarining bir ko'rinshi sifatida tahlilida tatabbunavislik san'ati ham o'rganiladi. Maqolada iste'dodli shoira Nodira Afoqovaning buyuk mutafakkir Alisher Navoiy g'azallariga bitgan tatabbu'lari xususida mulohazalar keltirildi. She'rlarning poetik xususiyatlari, aruz ilmiga oid qonuniyatlarni aks ettirish jihatlari tahlilning ilmiy va germenevtik usullariga ko'ra tadqiq qilindi. Nazira yaratish jarayonining vazn yoki janrga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, salaf ifodalagan g'oyaning xalaf ijodida qay darajada aks etganligi, bunda ijodkorning san'atkorligi va mahoratiga baho berildi.*

**Kalit so'zlar:** *tatabbu', nazira, an'anaviylik, taxmis; aruz vazni, hazaj va ramal bahlari; g'azal, ruboiy, tab'i xud muxammaslar; barmoq vazni, qofiya, radif; istiora, iyhom, tarse', tardi' aks badiiy tasvir vositalari.*

**Аннотация:** *При анализе явлений традиционализма, преемственности, преемственности изучается также искусство экспериментального письма. В статье прокомментированы газели великого мыслителя Алишера Навои талантливой поэтессой Надирой Афоковой. Поэтические особенности стихотворений, аспекты отражения законов, связанных с наукой аруз, изучались с помощью научно-герменевтических методов анализа. Изучалось влияние процесса создания образца на вес или жанр. Также по тому, в какой степени идея, высказанная предшественником, нашла отражение в творчестве преемника, оценивалось художественность и мастерство поэтессы.*

**Ключевые слова:** *татаббу', назира, традиционализм, тахмис; аруз, хазадж и рамал бахр; газель, рубаи, таби худ мухаммас; вес пальцев, рифма, радиф; аллюзии, аллюзии, тарсе', тарди' и другие средства художественного изображения.*

**Abstract:** *In the analysis of the phenomena of traditionalism, followership, succession, the art of experimental writing is also studied. In the article, comments were made about the ghazals of the great thinker Alisher Navoi by the talented poetess Nadira Afokova. The poetic features of the poems, the aspects of reflecting the laws related to the science of aruz were studied according to the scientific and hermeneutic methods of analysis. The effect of the process of creating a sample on weight or genre was studied. Also, to what extent the idea expressed by the predecessor was reflected in the work of the successor, the artist's artistry and skills were assessed.*

**Key words:** *tatabbu', nazira, traditionality, takhmis; aruz weight, hazaj and ramal bahrs; ghazal, rubai, tabi khud muhammas; finger weight, rhyme, radif; allusions, allusions, tarse', tardi' and other artistic image tools.*

O'zbek mumtoz adabiyotida nazira yozish, izdoshlik va vorisiylik yo'lida yaratilgan asarlar hamda shunday usulda ijod qilgan ijodkorlar faoliyatini o'rganish va tahlil qilish XIX asr o'rtalarida yuzaga kelgan. Bu jarayon har bir davr uchun muhim, jiddiy masala hisoblangan. Mamlakatimiz Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelayotgan milliy ma'naviy merosimizni o'rganish shu kunning eng dolzarb vazifasi ekanligini ta'kidlab: "Buyuk ajdodlarimizning



# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanish kerak" [1.],-deya ilm ahli oldiga yuksak vazifalarni belgilab bergan. Adabiyotlar tahlili

Adabiyotshunos olim Fayzulloev tadqiqotlarida tatabbu'ga Nikitskiy, Bartold, A.Sa'diylar tarjima yoki taqlidchilik sifatida noto'g'ri baho berganliklarini, o'tgan asrning 60-yillaridagina tatabbu'navislikka Bertels, Hayitmetov, Is'hoqov, R. Orzibekov, A. Abduqodirovlar ijodiy jarayon sifatida tahlil etganliklarini qayd etadi. [2.3-5.] Adabiyotshunos olim M. Tojiboyeva esa "an'ana va vorislik nafaqat badiiy adabiyot, umuman, san'atga xos hodisa" deya ta'kidlaydi. Darhaqiqat, tatabbu' janr emas, tatabbu' tazmin, nazira atamaları bilan ham yuritiladi, u adabiy tur, she'riy sistema, janrga ta'sir qiladi, ya'ni tatabbu'da ustoz yoki zamondosh shoirlarning she'rlaridan misra, bayt yoki asarning qofiya va radifi olinib, ijodiy rivojlantiriladi. Tatabbu' –o'xshatma yaratishdan maqsad, avvalo, ijod sirlarini o'rganish, ijodda yuksalish, ustozga tenglashish, taqliddan qochib, o'ziga xos yuksak san'atkorlik namunasini ko'rsatishdir. Zero, "Tatabbu' ijodiy bellashuvdir. Tatabbu'navislik an'ana, yangilik va mahorat uchligi bilan bog'liq faoliyatdir". [2.11.] Adabiyotshunoslik tarixida tatabbu' va mumtoz adabiyot an'analari masalasi "O'zbek she'riyatida tatabbu' tarixi va mahorat masalalari (XVII-XIX asrlar va XX asr boshlari g'azalchiligi asosida)" [Fayzulloev B.B. dic-258/2004], "Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an'analari" [Tojiboyeva M.A. dis- 383/2018], "Avaz she'riyatida an'ana va mahorat" [Yuldasheva M.T. dis-651/2006], "Muazzamxon she'riyatida adabiy an'ana va badiiy mahorat" [Saydaliyeva N.F. dis-160/2004] kabi mavzularda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Hassos shoira Nodira Afoqova ijodida an'ana va mahorat, tatabbu' va izdoshlik masalalari haqidagi mulohazalar hali tadqiq etilmagan. Umuman, shoira she'riyatiga doir Akif Bag'ir, Bahodir Sarimsoqovlarning ayrim ilmiy kuzatishlari chop etilgan xolos. [3.3-5.] Mazkur ishda Nodira Afoqovanning "Ko'ngil shevasi", "So'z ayvoni", "Qora navo", shuningdek, shoira ijodini aks ettiruvchi "Nodira Ofoq. t.me./ Nodira she'riyati" telegram kanali va Facebook ijtimoiy tarmog'ida e'lon qilingan she'rlari ilmiy va germeneytik tahlil qilindi. Tahlilga shoiraning Navoiy g'azallariga bitgan tatabbu' g'azallari olindi.

Nodira Afoqova ijodida "Hazrat Navoiyning yetti go'zali" turkumiga kiruvchi g'azallar Navoiy g'azallaridan ta'sirlanib, ularga bitilgan tatabbu'larning eng go'zal namunalaridir. Shoira nazira talabiga ko'ra Navoiyning mashhur yettita g'azali misrasini maqta'da qo'llab, unga "javob" yozadi. "Erur paydoliq'ing pinhon, vale pinhonlig'ing paydo", "Haq o'zin qildi muhib, sen oyni mahbub, ey habib", "Ne tirikmen, ne o'lik, ne sog', ne bemormen", "Yo sog'inmog'ni sog'in, yoxud

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

unutmoqni unut!”, “Yaxshilardin yaxshisen sen, men – yomonlardin yomon”, “Jon erur, jonon emas, yo jon emas, jonon erur”, “Bilmagay holim shikastin ko‘rmagan buncha shikast” [5.]. Turkimga “yetti go‘zal” sifatining berilishi ham unga asos bo‘lgan yetti g‘azaldir. Shoira tazmin tuzayotganidayoq o‘z maqsadiga o‘zgacharoq ya‘ni u Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidan yettita g‘azalni tanlab olib, bunda mantiqan Navoiyning “Sab‘ai sayyor” dostonidagi yetti hikoyatga ishora sifatida yondashadi. Va bu yetti g‘azalni shunday tartib bilan joylashtiradiki, bu mumtoz adabiyotning azaliy an‘anasi- asar kompozitsiyasidagi boshlanmaning hamd, na‘t bilan boshlanishiga monanddir. Shoira Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” lirik kulliyoti tarkibidagi [6.]“Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo” deb boshlanuvchi g‘azaliga tatabbu’ yozadi. Mazkur g‘azalning shohbayti bo‘lgan ikkinchi baytning juft misrasini g‘azali maqta’sida qo‘llaydi. Odatda, tatabbu’ qilinganda vazn o‘zgarishi mumkin. Ammo mazkur g‘azal hazaji musammani mahzufda yozilgan bo‘lsa, Nodira uni to‘la vaznda-ya‘ni hazaji musammani solimda yaratgan. “Haq o‘zin qildi muhib, sen oyni mahbub, ey habib” misrasidan tatabbu’ hosil qilingan g‘azal esa Allohning rasuli Muhammad s.a.v.ga bag‘ishlangan na‘t-sanolardir. Navoiy mazkur g‘azalda Allohning rasulini “mahbub, habib” deya ta‘riflasi, shoira “marg‘ublar ichra mag‘rub” deya; agar Navoiy “oy” desa, Nodira “Oftob” deya ta‘rifga tadrijiylik sifatini berib, tashbehni yangilaydi. “Zihi husnung...” allohga hamd, ikkinchi g‘azal “Haq o‘zin qildi muhib, sen oyni mahbub, ey habib” esa Allohning rasuli Muhammad s.a.v.ga bag‘ishlangan na‘t-sanolardir. G‘azalda Rasululloh s.a.v.ga nisbatan “habib”, “oftob” sifatlari qo‘llanadi. Ushbu na‘t-g‘azalda ishtiyoq (she‘riyatda o‘zakdosh so‘zlarni qo‘llash) badiiy tasvir vositasini mahorat bilan qo‘llagan: mahbub-habib, qiyos-miqyos, oy-oydog‘, Habibulloh-habib so‘zlari asosdosh so‘zlar sifatida qo‘llangan. G‘azal ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan, ya‘ni Afoqova ham mazkur vaznni to‘la saqlay olgan. ”Ne tirikmen, ne o‘lik, ne sog‘, ne bemormen” deb boshlanuvchi g‘azal Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidan olingan bo‘lib, hijron motivlari kuylangan she‘rlar sirasiga kiradi. G‘azal aruzning ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. To‘rtinchi “go‘zal” tasavvufiy tamoyillar, ma‘rifat va haqqa erishish haqidagi falsafiy mulohazalar ifodasiga bag‘ishlangan. Shoira Navoiy g‘azali 4-baytining “Yo so‘ginmoqni sog‘in yoxud unutmog‘ni unut” misrasiga tatabbu’ bog‘lagan. Tatabbu’ aruzning ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan.

Paradigmasi: -v--/ -v--/-v--/-v-.

To so‘ginmoq bo‘ldi kasbim, vah, meni sog‘indi zuhd,

To unutmog bo‘ldi kasbing-menga bu olam unut, -deb yozadi shoira Navoiyning “Ey ko‘ngul, yor firoqida labolab may tut,



# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Dam-badam la'li xayoli bila xotirni unut"- matla'li g'azaliga yozgan tatabbu'sida. Shoir "5-go'zal"iga Alisher Navoiyning "Favoyid ul -kibar" devonidan 442-"Rishtayi jonim sanga bog'liqdur, o'ltur bir zamon

Kim, erur qo'pmoq hamon-u rishtani uzmaq hamon" – matla'li she'rining ikkinchi bayt to'rtinchi misrasi "Yaxshilardan yaxshisen sen, men yomonlardan yomon" misrasini tatabbu' sifatida olgan. Shoir mazkur g'azalida Salaf Navoiyning ramali musammani mahzuf vaznini to'la saqlay olgan. Taqte'si: -v--/-v--/-v--/-v-. G'azal an'anaviy oshiq va ma'shuq munosabatlariga bag'ishlangan, go'yo oldingi tazmin g'azallar mazmunining mantiqiy davomi sifatida yangraydi. Shoir:

Bo'l omon. Senkim, menga qismat qadarli beomon,

Bu omonlik bahsida men-bir, ikingiz bir tomon,- matla'sida omon-beomon-omonlik so'zlari o'zakdosh so'zlar sifatida olib, ishtiyoq tasvir vositasini qo'llaydi. Yorga omonlik tilab, uning qismat qadar beomon(rahmsiz) ekanligiga mantiqan zidlab, bu borada yor va qismatning bir tomon, o'zining ular oldida yolg'izligini ifodalash bilan yana qarshilantirish san'atini qo'llaydi. Baytda ishtiyoq va qarshilantirish san'atlaridan ustalik bilan foydalanish ijodkorning falsafiy tushunchalarini yorqin ochishga xizmat qilgan. Shuningdek, she'rda ta'did badiiy tasvir vositasining ham chiroyli namunasini kuzatish mumkin:

Jabring-u qahring, jafoying, iddayong yaxshidir,

E'tiborsiz qo'ymading, bas, qilmasang parvo-yomon.

Bir xil tartibda takrorlanuvchi grammatik qo'shimchani (-ing egalik qo'shimchasi) she'r ohangdorligini oshirish bilan birga, xuddi jabr, qahr, jafo, iddao qatorida sinonimlar sifatida tasavvur uyg'otib, mantiqning kuchaytirilishiga olib kelgan.

"Kuyma derlar do'stlar, bu xorihi imkon erur,

G'am erur kuymaslik ortiq, kuymagim oson erur",-matla'si bilan boshlaydi Afoqova Navoiyning "Har labing o'lganni tirguzmakda jono, jon erur, Bu jihatdin bir-birisi birla jonojon erur" matla'li g'azaliga yozgan tatabbu'sini. Shoir tazmin sifatida "Jon erur, jonon emas, yo jon emas, jonon erur" misrasini Navoiy g'azalidan olib, g'azalining maqta'sida qo'llaydi. Baytda "kuymoq" so'zining o'zakdosh so'zlar, shuningdek, "kuyma", "kuymaslik", "kuymagim" tarzida misraning turli o'rinlarda qo'llash bilan ohangdorlik hosil qilgan. "G'am erur kuymaslik ortiq", "kuymagim oson" degan jumla zamiriga o'zining irfoniy-tasavvufiy qarashini singdiradi. "Navoiyning yetti go'zali" g'azallar turkumining so'nggi "go'zal"i "Bilmagay holim shikastin ko'rmagan buncha shikast" misrasiga bog'lagan xotima she'ri "So'rma holim... Aylanib ming, yeti osmon bo'ldi past,

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Yer tubanlar sori uchdi... qaydaman men shul nafas?" matla'si bilan boshlanadigan g'azalidir. Mazkur she'rda shunday bayt bor:

Ham "Sig'ar"dir, ham "Shabob", gohi "Vasat", gohi "Kibar"-

Barchasi holim aytur-ishqparsatmiz, haqparast.

Shu yo'l bilan Nodira o'zining ham ishq ahlidan ekaniga ishora qiladi. Tasavvuf tamoyillarining o'tkir suxandoni, go'zal tadqiqotchisi ekanidan ma'lumot beradi. Zero, ishq kuychilari o'zlarining botiniy sirlarini, irfoniy-tasavvufiy maslaklarini "boda"ga bo'lgan munosabatlarida yorqin namoyon etadilar:

Boda ich, sindir qadahni! Boshni ol, ket bir sari!

Javri ag'yor birla yordin shul shiorim bo'ldi, bas!-deya majoziy ishqdan ko'ra ilohiy ishqni o'ziga azaliy qismat deb biladi. Baytda ifodalangan ma'no ham Navoiyning mashhur tarje'bandidagi "Xarobat aro kirdim oshuftahol, May icharga ilkimda singan safol" baytini yodga soladi. Professor Najmiddin Komilov xarobat haqida shunday deydi: "Xarobat so'zining lug'aviy ma'nosi vayrona, sharobxona, bo'lsa-da, ammo tasavvuf ahli istilohida inson jismining xarob bo'lishi-qanoat, faqr yo'liga kirib, hayvoniy nafslar, keraksiz, yomon xulq-odamlardan qutulib, o'zni xoksorlik, kamtarinlik rutbasiga solishdir".[5.] Darhaqiqat, Nodiraning baytdagi "Boshni ol, ket bir sari" jumlasida bu ma'noni anglash qiyin emas.

Ming sinib, ming but o'libman, Endi bildim, Hazratim:

"Bilmagay holim shikastin ko'rmagan buncha shikast",-deya Afoqova o'z yettilik g'azallari turkumiga yakun yasaydi. Zero, ishq yo'liga kirganlarga buni biladilar, anglaydilar.

Nodira Afoqova ijodiga buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning ta'siri katta. Xususan, shoira Navoiyga ergashib, uning "Xazoyin ul-maoniy" lirik kulliyoti tarkibidagi devonlarga jamlangan yettita she'rga tatabbu' bog'lagan. Bu zamonaviy o'zbek she'riyatida yangilik bo'lib, salaflarning g'azaliga turkum naziralar yaratilmagan. Shoira ijodida mumtoz adabiy an'analarga ergashishdan ko'ra ijodiylik ko'proq kuzatiladi. Shoira she'rlarda badiiy tasvir vositalarning qarshilantirish, istiora, tarse', ta'did, husni ta'lil singari ko'plab turlaridan unumli foydalangan. Yuqori darajada so'z qo'llash san'atidagi mahoratini ko'rsatib, o'ziga xos topilmalar, kashfiyotlar qilgan. Poetik fikrning siqqligi va uning izchil davom ettirilishi, misralardagi ohangdoshlikning uzviyligi, har bir misrada alohida tuyg'u, his, fikrning ifodalanishi, tafakkur tarzining o'ziga xosligi shoira ijodining individual hodisa ekanlini ko'rsatadi.



# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

### Adabiyotlar ro'yxati

#### (Использованная литература / References):

1. Sh. Mirziyoyev, "Prezident o'qituvchi va ziyolilarga murojaat qilmoqda" ma'ruzasi. 30.09.2020
2. Fayzulloyev, B.B. O'zbek she'riyatida tatabbu' tarixi va mahorat masalalari. T. 2002.3-5-bet
3. Бағир А. Соҳир шеърят// Ўзбекистон адабиёти ва санъати", 2004 йил 28-апрель;
4. Саримсоков Б. Ижод бахти, яратиш бахти // Афоқова Н. Кўнгил шеваси. – Т.: "Фан", 2006. – 3-6-б.;
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/nodira-afogova-hazrat-navoiyning-yetti-gozali.html>.
6. Navoiy "Xazoyin ul maoniy". G'aroyib us-sig'ar. [http://navoi.natlib.uz:8101/uz/xazoyin ul maoniy garoyib us sigar uchinchi tom/gazallar/gazallar 1 100/](http://navoi.natlib.uz:8101/uz/xazoyin%20ul%20maoniy%20garoyib%20us%20sigar%20uchinchi%20tom/gazallar/gazallar%201%20100/)
7. Алишер Навоий, Фавойид ул-кибар. Тошкент.: "Фан", Б- 445-446
8. N.Afoqova "Ko'ngil shevasi", O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti, 2006-yil , B-74
9. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари. Тожибоева М.А. дис- 383/2018 79-106-betlar, 107-149-betlar